

3rd MAY

2024



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



OpenAIRE



digital
object
identifier



OPEN ACCESS

NETHERLANDS

INTELLECTUAL EDUCATION
TECHNOLOGICAL SOLUTIONS
AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS



info.interonconf@mail.ru

www.interonconf.org



ISOC
INTERNATIONAL
SCIENTIFIC
ONLINE
CONFERENCES



INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS

International scientific-online conference

Part 27

MAY 3rd

COLLECTIONS OF SCIENTIFIC WORKS

AMSTERDAM 2024



INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS: a collection of scientific works of the International scientific online conference (3rd MAY, 2024) – Netherlands, Amsterdam : "CESS", 2024. Part 27– 534p.

Chief editor:

Candra Zonyfar - PhD Universitas Buana Perjuangan Karawang, Indonesia Sunmoon University, South Korea.

Editorial board:

Martha Merrill - PhD Kent State University, USA

David Pearce - ScD Washington, D.C., USA

Emma Sabzalieva - PhD Toronto, Canada

Languages of publication: русский, english, қазақша, о'zbek, limba română, кыргыз тили, Հայերեն....

The collection consists of scientific researches of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference.

"INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS". Which took place in Amsterdam on May 3rd, 2024.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.

© "CESS", 2024
© Authors, 2024

TABLE OF CONTENTS

<p>Eraliyeva Xurshida Mamarajab qizi Rasulova Rayhon Baxritdinovna <i>UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA IMOM- BUXORIY HADISLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI</i></p>	13
<p>Ergasheva Nilufar Akramjon qizi "ERKIN VOHIDOVNING TARJIMONLIK MAHORATI"</p>	17
<p>Abduvaxobov Shaxzod Mamasiddiqov Behro'z <i>O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI</i></p>	21
<p>Комилжонов Муҳаммадқодир Ҳикматулла ўғли <i>ЖИНОЯТ ПРОЦЕССИДА ГУМОН ҚИЛИНУВЧИ, АЙБЛАНУВЧИ, СУДЛАНУВЧИ ВА БОШҚА ШАХСЛАРНИНГ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ</i></p>	27
<p>Abduvahobov Shaxzod To`rabekov Samandar <i>BANK HISOBVARAG'I BO`YICHA SHARTNOMA, UNING TUZILISHI VA AHAMIYATI</i></p>	38
<p>Fayzulloyev Bobir Jobir o'g'li <i>KIBERXAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TUZILADIGAN NORMATIV-HUQUQIY Hujjatlarning asosiy jihatlari va ahamiyati</i></p>	42
<p>Tursunboyeva Mavjudaxon Shukurillo qizi <i>METHODS OF USING COMPUTER TECHNOLOGIES IN THE EVALUATION OF WRITING COMPENSATIONS OF NON-PHILOLOGY STUDENTS.</i></p>	47
<p>Кадирова Нозима Расулова <i>ВАЖНЫЕ АСПЕКТЫ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА</i></p>	51
<p>Ўроков Музаффар Мухиддинович <i>СУДЬЯЛАР ОДОБИ КОДЕКСИ МАЗМУН МОҲИЯТИ МАВЗУСИДА</i></p>	56
<p>Ibragimova Dilafruz Shukhratovna Xolbekova Soliha <i>EXPLORING SATIRE AND SOCIETY IN JONATHAN SWIFT'S "GULLIVER'S TRAVELS DURING THE AGE OF ENLIGHTENMENT"</i></p>	61
<p>Дилрабо Қувватова Раҳима Шарипова <i>ЧЎЛПОН ШЕЪРИЯТИДА ШАМОЛ ВА БУЛУТ ОБРАЗЛАРИ</i></p>	66
<p>Laylo To'rayeva <i>O'ZBEK XALQ O'YINLARIDA "BOBODEHQON" KULTIGA OID QARASHLAR TALQINI</i></p>	76

Umurova Nigina Raximovna Latipova Jasmina <i>"QIZIL VA QORA" ROMANIDA INSON RUHIYATI TALQINI</i>	85
Латипов Ҳаёт Рамазонович <i>SHARQ ADABIYOTIDA IRFON IFODASI</i>	96
Normurodov Jamshid Olimov Og'abek <i>JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI</i>	108
Niyozova I.N. Murodova Maftuna <i>INTERNET MARKETINGDAN SANOAT KORXONALARI FAOLIYATIDA FOYDALANISHNING AHAMIYATI</i>	115
Bakayeva Mohira Qo`ziyev Diyorbek <i>AHOLINI BANDLIGINI TA`MINLASH VA YANGI ISH O`RINLARI YARATISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ZARURATI</i>	120
Abdullayeva H.N. Murodov Sardor <i>RAQAMLASHTIRISH- MAMLAKAT TARAQQIYOTNING MUHIM OMILI</i>	125
Anvarova Zarina <i>MAMLAKATIMIZDA SUG'URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI</i>	134
Abdullayeva H Samiyev M. <i>AGROBIZNESDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH</i>	140
Чориева Н.К. Равшанов Манучеҳр <i>МАМЛАКАТИМИЗДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ СОҲАСИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР ЖАРАЁНИ ВА ЭРИШИЛГАН ИСТИҚБОЛЛИ НАТИЖАЛАР</i>	145
Sharapova Nigina Kadirovna Botirov Bahridin <i>BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: YANADA MUSTAHKAM MOLIYAVIY SEKTOR UCHUN STRATEGIYALAR</i>	152
Rakhmonov SHukhrat <i>IMPROVING THE BANKING SYSTEM: STRATEGIES FOR A STRONGER FINANCIAL SECTOR</i>	160
Niyozova I.N.	167

MAMLAKATIMIZDA SUG'URTA BOZORINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJ TAJRIBASI

Buxoro davlat universiteti
Raqamli iqtisodiyot yo'nalishi
2-kurs magistranti **Anvarova Zarina**

Annotatsiya. Ushbu maqolada sug'urta bozorini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasi haqida nazari ma'lumotlar va amliy jihatlari o'rganilib, talkiflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta tizimi sug'urta bozori, sug'urta xizmati, sug'urta polisi.

Аннотация. В данной статье изучаются теоретические сведения и практические аспекты зарубежного опыта государственного регулирования страхового рынка и даются предложения.

Ключевые слова: система страхования, страховой рынок, страховая услуга, страховой полис.

Annotation. This article studies theoretical information and practical aspects of foreign experience in state regulation of the insurance market and makes suggestions.

Key words: insurance system, insurance market, insurance service, insurance policy.

Hozirgi kunda davlatimiz sug'urta tizimidagi tendensiyalarni aniqlash, uning innovatsion yo'nalishlarini tizimga joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Innovatsion yo'nalishlarni joriy etish nafaqat axborotni raqamlashtirish va uni zamonaviy telekommunikatsiya kanallari yordamida tarqatish, balki sug'urta tizimi uchun mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilashga qaratilgan zamonaviy telekommunikatsiya va innovatsion texnologiyalarni qo'llash jarayoni sifatida ham ta'riflangan.

Bu borada mamlakatimiz iqtisodiyotiga innovatsiyaning muhim shakli sifatida raqamli texnologiyalarning tezkorlik bilan joriy etilishi dolzarb ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi"¹, deb alohida ta'kidlanganligi bejiz emas²⁹.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi//Xalq so'zi, 2020 yil 26 yanvar.

Xorijiy mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarning barchasida sug'urta bozori davlatning vakolatli idoralari tomonidan tartibga solib boriladi. Masalan, Buyuk Britaniyada sug'urta ishini Savdo va sanoat departamenti, Yaponiyada Moliya vazirligining sug'urta bulimi, AQShda esa maxsus sug'urta komissariatlari nazorat qilib boradi. Davlat, bunday nazorat ishini olib borar ekan, avvalo, mamlakatning sug'urta sohasiga taalluqli qonunlariga hamda boshqa me'yoriy hujjatlariga asoslanadi. Sug'urta va qayta sug'urtalash kompaniyalari, sug'urtaga ixtisoslashgan vositachilar davlat sug'urta nazoratining ob'ektlari hisoblanadi.

Xorij amaliyotida sug'urta turlarini tartiblashtirilgan tizimi mavjud bo'lib, ular hozirgi vaqtda Evropa Ittifoqi davlatlarida sug'urtaning yagona klassifikatsiyasi sifatida ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilgan.

Shunisi diqqatga sazovarki, Frantsiyada uzoq yillar davomida sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat qiluvchi davlat organi tashkil etilmagan. Sug'urta kompaniyalari faoliyatini nazorat funktsiyani Iqtisodiyot va Moliya vazirligining departamentlaridan biri bajargan.

Sug'urta bozori hududiy joylashuviga qarab xalqaro, mintaqaviy va milliy sug'urta bozorlariga bo'linadi. Milliy sug'urta bozori biron-bir mamlakat hududidagi sug'urta muassasalarini va ularni faoliyatini o'z tarkibiga oladi. Jahondagi eng yirik milliy sug'urta bozori Amerika Qo'shma shtatlaridir. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda yig'iladigan sug'urta tushumlarining 43 foizdan ortig'i AQSh hissasiga to'g'ri keladi. Bu yerda hayotni sug'urta qiluvchi 2600 dan ortiq va boshqa umumiy turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi 3800 ta kompaniya faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan ba'zi birlari dunyo sug'urta bozorida ham oldingi o'rinlardadir. Masalan, "Prudensial of Amerika" kompaniyasi mamlakat ichki bozorida birinchi va 1992-yil boshida mavjud aktivlari, to'plagan sug'urta mukofotlari bo'yicha uchinchi o'rinni egalladi.² Jahon sug'urta xizmatlari bozorida raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan "Insurtech" deb nomlanuvchi startap loyihalarini moliyalashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. "Willis Towers Watson" sug'urta brokerlik kompaniyasi o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, AQShda 2013 yildan 2018 yilning birinchi yarmiga qadar hayotni va sog'liqni sug'urtalash bo'yicha startap loyihalariga 5,1 mlrd. AQSh dollari, baxtsiz hodisalardan sug'urtalash va mulklarni sug'urtalash yuzasidan startap loyihalariga 4,2 mlrd. AQSh dollari miqdoridagi pul mablag'lari sarflangan. Ushbu sug'urta turlarini raqamlashtirish bo'yicha jahon sug'urta bozorida amalga oshirilgan

investitsiyalarning qariyb 58,0 foizi AQSh, 7,0 foizi Buyuk Britaniya, 5,0 foizi Germaniya va Xitoy, 4,0 foizi Hindiston, 3,0 foizi Fransiyaga va qolgan 18,0 foizi esa boshqa davlatlar hissasiga to'g'ri kelgan³⁰.

Shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakatimizda ham raqamli texnologiyalarning bir ko'rinishi sifatida elektron sug'urta turlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Masalan, "Kafolat" sug'urta kompaniyasining veb-saytida quyidagi ma'lumotlar mavjud: "Sug'urta polisini uyingizdan chiqmagan holda daqiqada rasmiylashtirishni xohlaysizmi? www.kafolat.uz orqali arizalarni rasmiylashtiring", "Sug'urta xizmatlari mobil dasturi orqali". Ushbu jummalarni chuqurroq tahlil etadigan bo'lsak, unda sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdagi innovatsion yondashuvni, aniqroq qilib aytganda, sug'urtaning raqamlashtirilgan qiyofasini kashf etish mumkin³¹.

"O'zbekinvest" sug'urta kompaniyasi tomonidan onlayn sug'urta xizmatlari ko'rsatishga ixtisoslashgan "insurance.uz" loyihasi amaliyotga tatbiq etildi. Sug'urta mahsuloti iste'molchilari o'zlarini qiziqtirgan sug'urta mahsulotlarini onlayn tarzda internetdagi ushbu saytdan xarid qilishlari mumkin bo'ladi. Hozirgi kunda ushbu kompaniya, nafaqat, onlayn sug'urta xizmatlarini ko'rsatmoqda, balki sug'urta hodisalari sodir bo'lishi natijasida yetkazilgan zararlarni qoplashda ham onlayn tizimidan samarali foydalanmoqda. Shu o'rinda, sug'urta xizmatlarini mijozlarga onlayn taklif etish boshqa sug'urta kompaniyalarida ham yaxshi yo'lga qo'yilganligini qayd etib o'tish zarur³².

Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ham sug'urta bozorini yanada rivojlantirish hamda mazkur sohani raqamli texnologiyalar asosida qayta qurollantirish, provardida esa, aholining sug'urta va sug'urta bozori haqidagi bilim va tasavvurlarini oshirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilayotganligidan hamda " ... zamonaviy sug'urta bozori rivojlanishining muhim omili sohani raqamlashtirish ekanligi, u sug'urta kompaniyasining biznesi, faoliyati tavsifini hamda sug'urta xizmatlarini taqdim etish, taqsimlash va foydalanish ko'rsatkichlarini yuqori bosqichga olib chiqish imkoniyatlarini oshirishligi"³³ bo'yicha samarali amaliy xarakatlar olib borilayotganligidan dalolat beradi.

³⁰ M Sharapova. "Iqtisodiy islohotlar sharoitida O'zbekiston Respublikasida sug'urta bozorini rivojlantirish yo'llari". "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. 22.03.2022. 1179-b.

³¹ "Kafolat" sug'urta kompaniyasi saytinin bosh sahifasi// www.kafolat.uz.

³² "O'zbekinvest" onlayn sug'urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). //www.uzbekinvest.uz

³³ F.Ubaydullaev, Z.Umrzoqov. "Sug'urta bozorining bugungi holati va istiqbollari". https://uza.uz/uz/posts/sugurtabozorining-bugungi-holati-va-istiqbollari_420317

Xulosa qilib, sug`urta bozorini raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish asosida samarali tashkil etish, sug`urta kompaniyalari va sug`urta qildiruvchilarga tegishli ma'lumotlarning ishonchli saqlanishi va muhofaza etilishini ta'minlash choralarini ko`rish, sug`urta xizmatlarini global internet tarmog`i orqali xarid qilish bo`yicha yuridik va jismoniy shaxslarga imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xorij tajribasi asosida raqamli texnologiyalarni sug'urta faoliyatida qo'llash natijasida:

- sug'urta faoliyati samaradorligi va rentabelligi oshadi;
- o'zaro va tijorat sug'urtasining yaqinlashuvi (P2P sug'urtasi) amalga oshadi;
- sug'urta munosabatlarining ijtimoiylashuviga erishiladi;
- yangi sug'urta xizmatlari va mahsulotlari paydo bo'ladi;
- sug'urta sohasidagi mehnat bozori o'zgaradi, ya'ni ba'zi sug'urta agentlari, soha mutaxassislarini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va robotlar bilan almashtirish sodir bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi//Xalq so`zi, 2020 yil 26 yanvar.
2. M Sharapova. "Iqtisodiy islohotlar sharoitida O`zbekiston Respublikasida sug`urta bozorini rivojlantirish yo'llari". "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842. 22.03.2022. 1179-b.
3. "Kafolat" sug`urta kompaniyasi saytining bosh sahifasi// www.kafolat.uz.
4. "O`zbekinvest" onlayn sug`urta sohasida insurance.uz ni taklif etadi. (2019). // www.uzbekinvest.uz
5. F.Ubaydullaev, Z.Umrzoqov. "Sug'urta bozorining bugungi holati va istiqbollari". https://uza.uz/uz/posts/sugurtabozorining-bugungi-holati-va-istiqbollari_420317
6. Assessment of the risk of bankruptcy of the enterprise Jan, 20 2023
7. Iqtisodiyot Transdisiplinarlik bilish www.ugb.ro/etcjild. XIV,1/2011-son 2023y 248-259.
8. "Pravda Vostoka" gazetasi Raqamli iqtisodiyot: "Taraqqiyot sari qisqa yo'l-
9. Raqamlashtirish" 17 sentyabr 2020 20199
10. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. №

3, may-iyun, 2020 yil.

11. Niyozova, I. (2023). The Reforms Implemented In The Higher Education System Of The Republic Of Uzbekistan And Their Achievement Of Financial Independence. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 38(38).

12. Таирова, М. М., & Гиязова, Н. Б. (2016). Поддержка предпринимательской деятельности в Узбекистане. International scientific review, (2 (12)), 105-107.

13. Таирова, М. М., & Кодирова, Н. Р. К. (2020). Инновация-концептуальная основа модернизации. Наука и образование сегодня, (2 (49)), 35-36.

14. Kadirovna, S. N., & Hamidjon ogli, N. M. (2024). O'ZBEKISTONDA ISHSIZLIK MUAMMOSI VA UNI BARTARAF ETISH. Gospodarka i Innowacje., 46, 442-445. 14. Niyozova, I. (2021). Mechanism of Implementation of Mandatory Health Insurance in Uzbekistan under Conditions of Increasing Integration Processes. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 7(7).

15. Navruz-Zoda, L. B., & Navruz-Zoda, Z. B. (2020). Improvement Of Social Prestige Of Entrepreneurial Companies In Bukhara Region. Academy, (3), 37-39. 7. Usmanova, A. B. (2022). Sport Tourism As A Sport And Form Of Activity. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 212-214.

16. Усманова, А. (2022). The Current State And Analysis Of The Tourist Potential Of The Bukhara Region. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 15(15).

17. Navruz-Zoda, Z. (2023). Development Of Self-Employment Of The Population As A Factor Of Ensuring Economic Stability. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 33(33).

18. Rakhmatullaeva, F. M., & Aminova, N. B. (2022). Methodological Approaches To The Development Of Ecological Tourism Logistics. European Journal Of Innovation In Nonformal Education, 2(1), 207-211. 22. Dustova, A. (2022). Stimulating The Economic Growth Of Territories Through The Development Of Regional Tourism. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 12(12).

19. Xasanova, S. (2023). Analysis of the Work Carried Out in Uzbekistan and the World to Prevent Tax Violations. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(12), 47-50.

20. Хаирова, Д. Р., & Сайфуллаева, М. И. (2021). Тенденции развития цементной индустрии в Узбекистане. Бюллетень науки и практики, 7(6), 358-362.



21. Сайфуллаева, М. (2023). РАЗВИТИЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ КАК ФАКТОР СТАБИЛЬНОГО РОСТА. Nashrlar, 368-371.
22. Qayimova, Z. (2023). Theoretical Aspects of the Development of the Socio-Economic Infrastructure of the Country. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 27(27).